

XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



**2024- yilyanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori
(dastlabki ma'lumot)**

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2024- yilyanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3 848,8 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoni shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,5 foizga o'sdi.

Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi
(2024- yilyanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subjektlaridan tashqari)

SANOAT SOHASIDA



4 965,6 ming so'm	<i>iyul</i>
<i>avgust</i>	5 127,2 ming so'm
4 944,6 ming so'm	<i>sentabr</i>

Yanvar-sentabr

4 723,9
ming so'm



QURILISH SOHASIDA



4 874,9 ming so'm	<i>iyul</i>
<i>avgust</i>	5 234,9 ming so'm
5 236,9 ming so'm	<i>sentabr</i>

Yanvar-sentabr

5 267,5
ming so'm



SAVDO SOHASIDA



Yanvar-sentabr

6 255,9
ming so‘m



TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA




Yanvar-sentabr

7 344,0
ming so‘m



AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA



Yanvar-sentabr

8 209,6
ming so‘m



MOLIYAVIY VA SUG‘URTA FAOLIYATISOHASIDA




Yanvar-sentabr

10 936,8
ming so‘m



TA'LIM SOHASIDA



Yanvar-sentabr

3 176,0
ming so'm



SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIY XIZMATLAR SOHASIDA



Yanvar-sentabr

3 088,2
ming so'm



SAN'AT, KO'NGIL OCHISH VA DAM OLISHSOHASIDA



Yanvar-sentabr

3 350,8
ming so'm



BOSHQA FAOLIYAT TURLARI SOHASIDA




Yanvar-sentabr

4 728,4
ming so'm





Sohalar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi miqdori va o‘sish sur’ati (2024 yil yanvar-sentabr)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘sish sur’ati savdo sohasida 2,1 martani, tashish va saqlash faoliyati sohasida 39,6 % ni, sanoat sohasida 23,0 % ni, qurilish sohasida 18,2 % ni, ta‘lim sohasida 11,7% ni va moliyaviy va sug’urta faoliyati sohasida 9,6 % ni tashkil etib, boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqori bo‘ldi.



**Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilot xodimlari soni, ish haqi fondi hamda o‘rtacha oylik ish haqi
(2024- yil yanvar-sentabr; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subektlaridan tashqari)**

	Xodimlar soni, kishi:	Ish haqi fondi, mln.so‘m:	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m:
--	--------------------------	------------------------------	---

Jizzax viloyati bo‘yicha – jami	112 606	3 852 452,5	3 848,8
---------------------------------	---------	-------------	---------

shu jumladan:

Sanoat	15 496	658 820,8	4 723,9
Qurilish	1 526	72 343,6	5 267,5
Savdo	1 040	58 554,9	6 255,9
Tashish va saqlash	663	43 821,8	7 344,0
Yashash va ovqatlanish	128	3 541,2	3 074,0
Axborot va aloqa	495	36 573,9	8 209,6
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	1 875	184 559,2	10 936,8
Ta’lim	53 148	1 519 170,8	3 176,0
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	23 073	641 281,2	3 088,2
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	923	27 835,3	3 350,8
Boshqa faoliyat turlari	14 239	605 949,8	4 728,4

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Moliya va sug‘urta faoliyati sohasida 10 936,6 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,8m.), Axborot va aloqa faoliyati 8 209,6 ming so‘mni (2,1 m.) va Tashish va saqlash 7 344,0 ming so‘mni (190,8 %) tashkil etib, boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqori bo‘ldi.

Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlar o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Zafarobod – 180,5 %, G'allaorol – 169,1 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Forish – 38,9 % va Do'stlik – 42,9 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqinining eng yuqori ko'rsatkichi Sharof Rashidov tumani – 238,9 %, Paxtakor tumani – 115,2 % va Jizzax shahri – 104,5 % da kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Zafarobod tumani – 65,7 % va G'allaorol tumanida – 66,9 % kuzatildi.



Savdo sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida – 108,2 % viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Savdo sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi, Baxmal – 26,8 % tumanida kuzatildi.



Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahrida – 138,4 %, Zarbdor – 108,7 % va Baxmal -101,1 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar G'allaorol – 78,6 %, Yangiobod – 80,8 % hamda Zafarobod – 81,4 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Arnasoy – 138,1 %, Zomin – 108,8 %, Paxtakor – 103,5 % va Jizzax shahri – 102,1 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Forish – 82,3 %, G'allaorol – 84,9 %, Zarbdor – 85,6 %, tumanlarida kuzatildi



Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Yangiobod – 101,1 %, Jizzax shahrida – 100,0 % tashkil etdi.




**Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yil yanvar-sentabr, ming so‘mda)**

O‘rtacha oylik ish	2023- yil yanvar-sentabr	2024- yil yanvar-sentabr	O‘sish sur’ati, %.
Jizzax viloyatida	3 390,5	3 848,8	113,5
Jizzax shahri	4 335,1	4 922,5	113,5
tumanlar:			
Arnasoy	2 815,6	3 252,3	115,5
Baxmal	2 834,5	3 186,7	112,4
G‘allaorol	3 075,4	3 771,1	122,6
Sharof Rashidov	2 687,4	3 121,2	116,1
Do‘stlik	2 730,6	2 870,7	105,1
Zomin	2 848,8	3 208,1	112,6
Zarbdor	3 110,3	3 405,5	109,5
Zafarobod	3 817,8	4 323,0	113,2
Mirzacho‘l	2 716,2	2 937,5	108,1
Paxtakor	2 960,6	3 411,4	115,2
Forish	2 621,3	2 716,9	103,6
Yangiobod	2 513,8	2 898,3	115,3

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida 4 922,5 ming so‘mni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 113,5 %), Zafarobod tumanida 4 323,0 ming so‘mni (113,2 %), G‘allaorol tumanida 3 771,1 ming so‘m (122,6 %), Zarbdor tumanida 3 405,5 ming so‘mni (109,5 %) va Paxtakor tumanida 3 411,4 ming so‘m (115,2 %) ni tashkil etdi.


**Hududlar bo‘yicha o‘rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi
o‘rtacha ish haqiga nisbatan o‘sishi**

(2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatdagi o‘rtacha oylik
ish haqiga nisbatan, % da)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini hududlar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 127,9 % va G‘allaorol tumanida 112,3 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, Forish tumanida 70,6 % va Do‘stlik tumanida 74,6 % ni tashkil etib, viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo‘ldi.

Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to‘liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida mehnatga haq to‘lash eng kam miqdori (2023 yil dekabr oyidan 1 050,0 ming so‘mni tashkil etgan) bo‘yicha belgilangan miqdordan oz bo‘lishi mumkin emasligi ko‘rsatib o‘tilgan.



**JIZZAX VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI
2024- YIL YANVAR-SENTABR**

*Nashrga mas’ul:
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig‘ma axborot-tahliliy ishlar bo‘limi*

tel.: 0(372) 221-53-51

Buyurtma raqami № 24.10.2024- yil Tiraj 15 nusxa

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Jizzax shahri, To‘qimachilar ko‘chasi 7**

Rasmiy veb-sayt: www.jizzaxstat.uz
elektron pochta manzili: info@jizzaxstat.uz
elektron himoyalangan pochta manzili: jiz.stat@exat.uz